

O‘ZBEKISTONDA AYOLLARNING IQTISODIY FAOLLIGI: QIYOSIY TAHLIL

Ohunova Oygul Usmonjon qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda ayollarning mehnatga jalb etilishi bilan holatlar ko‘rib chiqilgan. Ayollarning ta‘lim va sog‘liqni saqlashdan foydalanish imkoniyatlari yaxshilanganiga qaramay, ularning rasmiy ishchi kuchi bozoridagi ishtiroki erkaklarnikiga qaraganda ancha pastligicha qolmoqda. Xotin-qizlarni ish bilan ta‘minlash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan davlat siyosati, ayniqsa, iqtisodiy islohotlar va gender tengligi borasidagi tashabbuslar kontekstida ham tahlil qilinadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, muvaffaqiyatga erishilgan bo‘lsa-da, tizimli tengsizliklarni bartaraf etish va O‘zbekiston ishchi kuchi bozorida ayollarning kengroq ishtirokini ta‘minlash uchun katta sa‘y-harakatlar va inklyuzivlik zarur.

Kalit so‘zlar: gender, iqtisodiy faollik, bandlik, ta‘lim.


Ta‘lim va ish bilan bandlik nuqtai nazaridan jinslar o‘rtasidagi nomutanosiblik mamlakatlar taraqqiyotga jiddiy to‘siq bo‘lmoqda. Ish bilan bandlik va ta‘lim sohasidagi gender nomutanosibligi iqtisodiy o‘rishga salmoqli ta‘sir ko‘rsatishi ko‘plab iqtisodchilar tomonidan isbotlangan¹. Alohida-alohida iqtisodiy kategoriya sifatida, bu nomutanosibliklar aholi o‘rtasida qashshoqlik va daromadlar tengsizligini yanada kuchaytiradi². Ijtimoiy adolat va shaxsiy farovonlikka gender nomutanosibligi zarar etkazadi. Shu sababli, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Mingyillik Rivojlanish Maqsadlari va 1994 yildagi Aholi va taraqqiyot bo‘yicha xalqaro konferensiyada (1994) qabul qilingan Harakatlar Dasturi ikkalasi ham ta‘limda gender tengligini asosiy maqsad qilib qo‘ygan³.

Ushbu rasm O‘zbekistonda 1991 yildan 2023 yilgacha bo‘lgan 15 yosh va undan katta yoshdagi erkaklar va ayollarning ish bandlikdagi ulushi ko‘rsatkichlarini aks ettiradi. Ishchi kuchining ishtiroki koeffitsienti - bu yosh guruhidagi band bo‘lgan yoki faol ish izlayotgan aholining ulushi hisoblanadi.

¹ Klasen, S. and F. Lammana 2009. The impact of gender inequality in education and employment on economic growth in developing countries: New evidence for a panel of countries. *Feminist Economics* 15(3): 91-132.

² Borass, S. and W.M. Rodgers III. 2003. How does gender play a role in the earnings gap? An update. *Monthly Labor Review* 126(3): 9-15.

³ Unterhalter, E. 2005. Global inequality, capabilities, social justice: The millennium development goal for gender equality in education. *International Journal of Educational Development* 25: 111-122.



1-Rasm. Erkaklar va ayollarning ish bilan bandlikdagi ulushi (15 va undan yuqori yoshdagi iqtisodiy faol aholi % da)⁴

manba: <https://genderdata.worldbank.org/en/economies/uzbekistan>

Ma'lumotlar O'zbekistonda erkaklar va ayollarning mehnat resurslarida ishtirok etish ko'rsatkichlari tafaovuti bosqichma-bosqich pasayib borayotganini, ayollarda esa sezilarli darajada kamayib borayotganini ko'rsatadi. Ishchi kuchi ishtirokidagi gender tafovutining kengayishi iqtisodiy o'sishni va gender tengligini ta'minlash uchun mehnat bozorida ayollarning kengroq ishtirokini rag'batlantirishga qaratilgan maqsadli siyosat zarurligini ko'rsatadi.

1-jadval

Korxonalar va tashkilotlarda yollanib ishlovchi ayollarning ta'lim darajasi bo'yicha taqsimlanishi (yil oxiriga, %)⁵

Ko'rsatkichlar	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Ayollar - jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
oliy	31,6	31,9	31,9	31,7	32,3	33,1	33,7	34,4	34,8	35,1	30,0	32,2	33,0
professional ta'lim	43,6	44,7	46,1	47,5	48,2	48,6	49,5	50,2	50,4	51,0	55,5	23,6	10,5
umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim	24,8	23,4	22,0	20,8	19,5	18,3	16,8	15,4	14,8	13,9	14,6	44,2	56,5

⁴ Muallif tomonidan Jahon banki ma'lumotlari asosida tayyorlandi

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari

Yuqoridagi jadvalda 2010 yildan 2022 yilgacha O‘zbekistonda band bo‘lgan ayollarning ta‘lim darajasi bo‘yicha taqsimlanishi ko‘rsatilgan. Oliy ma‘lumotga ega ayollarning jami bandlardagi ulushi nisbatan barqaror bo‘lib qoldi, 2010 yilda ish bilan band ayollarning 31,6 foizi oliy ma‘lumotga ega bo‘lgan bo‘lsa 2022 yilda bu ko‘rsatkich 33 foizni tashkil etdi. Professional ta‘lim darajasiga ega ayollar ulushi esa bosqichma-bosqich o‘shib, 2020-yilda 55,5 foizga yetdi. Biroq, 2021 va 2022-yillardan boshlab professional ta‘lim darajasiga ega ayollar ulushida keskin pasayish kuzatildi, mos ravishda 23,6% ga, keyin esa 10,5% ga tushdi. Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta‘lim darajasi ega yollar ulushida ham tebranishlarni ko‘rish mumkin. Bu ko‘rsatkich 2010-yilda 24,8 foizdan boshlangan va 2019-yilda 13,9 foizga pasaydi, ammo 2021 va 2022 yillarda mos ravishda 44,2 va 56,5 foizga keskin o‘tdi. Ushbu o‘zgarishlarni esa 2017 yildan boshlab maktablarda majburiy ta‘limning 11 yillik tizimga o‘tqazilishi va kollej, hamda litseylarning bosqichma-bosqich texnikumlarga aylantirilishi asosiy sabab bo‘ldi⁶.

2-jadval

Korxonada va tashkilotlarda yollanib ishlovchi ayollarning yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishi yil oxiriga, %⁷

Ko‘rsatkichlar	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Jami	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100
29 yoshgacha	33,6	33,7	34,0	33,2	32,5	31,7	30,9	30,7	30,6	29,7	29,1	26,5	17,8
30 - 39	28,5	29,0	28,8	29,3	29,6	29,9	30,2	30,9	30,9	31,1	32,1	34,4	41,2
40 - 49	25,9	25,8	25,7	25,7	25,8	26,0	26,2	25,9	25,5	25,9	26,1	28,4	29,2
50 - 54	8,7	8,7	8,9	9,2	9,5	9,6	9,8	9,7	10,0	10,0	9,4	7,4	7,9
55 va undan katta	3,3	2,8	2,6	2,6	2,6	2,8	2,9	2,8	3,0	3,3	3,2	3,3	3,9
O‘rtacha yosh. yoshda	35,8	35,7	35,6	35,8	35,7	35,9	36,0	36,0	36,4	36,5	36,6	37,2	37,8

Ma‘lumotlar O‘zbekistonda 2010 yildan 2022 yilgacha bo‘lgan davrda, ish bilan band bo‘lgan ayollarning yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishini ko‘rsatadi, bunda ish bilan band bo‘lgan ayollarning o‘rtacha yoshi 2010 yildagi 35,8 yoshdan 2022 yilda 37,8 yoshga ko‘tarilganligini kuzatish mumkin. Yosh guruhlari tahlili 29 yoshgacha ish bilan band bo‘lgan ayollar sonining nisbatan kamayganini ko‘rsatadi, ammo boshqa yosh guruhlari esa barqarorlik tendensiyasi saqlanib qoldi.

Yuqoridagi tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, O‘zbekistonda so‘ngi yillarda olib borilayotgan ishchi kuchi bozorida gender tenglik bilan bog‘liq islohotlar yanada kuchaytirilishi zarur. Jumladan, ayollarning professional ta‘lim olishi, oliy ta‘limni davom ettirish imkoniyatlari, ishchi kuchi bozori talablariga mos ta‘limni rivojlantirish kabi yo‘nalishlar bandlikda gender tenglikni yaxshilashga yordam beradi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adadiyotlar ro‘yxati:

1. McKinsey Global Institute. (2015). The Power of Parity: How Advancing Women's Equality Can Add \$12 Trillion to Global Growth. McKinsey & Company.
2. Acker, J. (2006). Inequality Regimes: Gender, Class, and Race in Organizations. Gender & Society, 20(4), 441-464.
3. Charles, M., & Grusky, D. B. (2004). Occupational Ghettos: The Worldwide Segregation of Women and Men. Stanford University Press.

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy O‘rta Ta‘lim To‘g‘risidagi Nizomni Tasdiqlash Haqida” Qarori <https://lex.uz/docs/-3137130>

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlari

4. Rubery, J. (2011). Reconstruction Amidst Deconstruction: Or Why We Need More of the Social in European Social Models. *Work, Employment and Society*, 25(4), 658-674.
5. OECD. (2018). *The Pursuit of Gender Equality: An Uphill Battle*. OECD Publishing.
6. Seguino, S. (2000). Gender Inequality and Economic Growth: A Cross-Country Analysis. *World Development*, 28(7), 1211-1230.
7. Hegewisch, A., & Gornick, J. C. (2011). The Impact of Work-Family Policies on Women's Employment: A Review of Research from OECD Countries. *Community, Work & Family*, 14(2), 119-138.
8. Blau, F. D., & Kahn, L. M. (2007). The Gender Pay Gap: Have Women Gone as Far as They Can? *Academy of Management Perspectives*, 21(1), 7-23.
9. Razavi, S. (2007). *The Political and Social Economy of Care in a Development Context: Conceptual Issues, Research Questions and Policy Options*. United Nations Research Institute for Social Development (UNRISD).
10. World Economic Forum. (2020). *Global Gender Gap Report 2020*. World Economic Forum.